

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

“RЎЙХАТГА ОЛИНДИ”

№ ВМ – 343 – 5А340801 – 2.01

“1” ИЮЛЬ 2003 й.

“ТАСДИҚЛАНДИ”
Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус
таълим вазирлиги

“8” ИЮЛЬ 2003 й.

XALQARO AUDIT TIZIMI

fanidan

DASTUR

**Oliy ta'limning 340000 – “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi
5A340902 – “Audit (iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha” magistratura
mutaxassisligi uchun**

Tashkent – 2003

Tuzuvchilar: prof. Xoshimov B.,
dots. Azlarov D.
Taqrizchilar: dots Hamdamov B.,
dots. Mamatov Z.

"Xalqaro audit tizimi" fani dasturi O'zbekiston Davlat standartining **5A340904 - "Tashqi iqtisodiy faoliyat hisobi va tahlili"** mutaxassisligi bo'yicha magistrantlar tayyorlash uchun tuzilgan.

Dasturda xorijiy davlatlarda xalqaro auditorlik faoliyati standartlari mazmuni va ulardan foydalanish tartiblari, xalqaro standartlar va audit nisbati, xalqaro standartlarning milliy standartlar bilan bog'liqligi hamda auditga doir boshqa me'yoriy hujjatlarni o'rganish ko'zda tutilgan.

Программа дисциплины "Система международного аудита" разработана согласно Государственному стандарту Узбекистана для магистров по специальности 5A340904 - "Учет и анализ внешнеэкономической деятельности".

В программе освещены вопросы содержания и порядка использования международных стандартов аудиторской деятельности за рубежом, соотношение международных стандартов и национальных нормативных документов.

The subject "System of international audit" is designed according to State Standard of Uzbekistan for the masters on a speciality 5A340904 - "Count and analysis of external economic activity".

In this program question about contents and order of usage of the international standards of auditor activity abroad, ratio of the international standards and national normative documents are lighted up.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel, 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul, 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturini hayotga tadbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgust 343-sonli Qaroriga muvofiq Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Mazkur standartlar asosida har bir o'qitiladigan fan uchun dasturlar tayyorlash zaruriyati turildi. "Xalqaro audit tizimi" fani bo'yicha ushbu dastur qo'yilgan barcha talablar asosida tuzilgan bo'lib, «Buxgalteriya hisobi», «Audit» mutaxassisligi magistrantlaridan tashqari Oliy ta'limning boshqa yo'nalishlari uchun ham qo'llaniladi. Xalqaro audit tizimi fani dasturi xorijiy mamlakatlar auditorlik tizimining o'ziga xos jihatlarni o'rganishni ko'zda tutadi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishni taminlovchi yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda auditorlik faoliyati muhim vazifalardan hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi - moliyaviy buxgalteriya hisobotlaridagi ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlash, xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish, hisob yuritish bo'yicha zarur maslahatlar berish va hokazolardan iborat.

«Xalqaro audit tizimi» fanini o'rganish, uning turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarni boshqarishda tutgan o'rnini tushunish va nazariy bilimlarni amaliy bilimlar bilan boyitishni vazifa qilib qo'yadi.

Magistrantlar "Xalqaro audit tizimi" fani bo'yicha quyidagilarni bilishi zarur:

- hozirgi rivojlangan iqtisodiyotda auditning o'rni va ahamiyati;
- xalqaro auditorlik standartlarining ishlab chiqilishi tartibi;
- xalqaro auditorlik standartlarining jahon mamlakatlari bo'yicha qo'llanilish darajasi;
- hujjatli va haqiqiy tekshirishlarni o'tkazishning xususiyatlari haqida;
- iqtisodiy ma'lumotlarni umumlashtirib, tahlil kilib, real ma'lumotlarga ega bo'lish;
- korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha xulosa va takliflar berish va hokazo.

Fan bo'yicha magistrantlarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Davlat ta'lim standartlariga asosan mazkur yo'nalishda ta'lim oladigan magistrantlar «Xalqaro audit tizimi» fani bo'yicha chuqur bilim olishi va etuk mutaxassis bo'lib etishishlari uchun quyidagilarni bilishlari zarur:

- ◆ hozirgi zamon taraqqiyotida auditning o'rni va ahamiyati;
 - ◆ buxgalteriya hisobi va audit fani iqtisodiyotni o'rganishning asosiy mezon ekanligi;
 - ◆ iqtisodiyotning turli sohalarini samarali boshqarishda audit ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qilishi;
 - ◆ huquqiy davlat, demokratik fuqarolik jamiyatining talabalari va magistrantlari, ayniqsa, buxgalter va auditor mutaxassisligini egallovchilar huquqshunoslik fanlarini chuqur egallagan bo'lishlari;
 - ◆ iqtisodiy siyosatni rivojlantirishda buxgalteriya hisobi va audit muhim bo'g'in ekanligi.
- O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliyot birligiga magistrantlarning o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga, ularning imkon qadar mustaqil bilim olishiga erishish zarur.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Mazkur fanni o'rganish uchun magistrantlar quyidagi fanlar bo'yicha etarli bilimga ega bo'lishlari zarur: tashqi iqtisodiy faoliyatning moliyaviy hisobi, tashqi iqtisodiy faoliyatning moliyaviy tahlili, investitsiyalar auditi va baholash, davlat soliq yig'implari va boshqa iqtisodiy fanlar, shuningdek, moliyaviy matematika. Uni o'zlashtirish natijasida magistrantlar xalqaro auditlarni o'tkazish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishlari, auditorlik xulosasi va rahbariyatga xat tuzishni bilishlari kerak.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

Magistrantlarga fanni zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimlarini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- magistrantlarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlash;
- magistrantga o'z bilimini o'zi baholashi uchun sharoit yaratib berish;
- magistrantlarning bilimini tayanch iboralar asosida baholashni joriy qilish;
- magistrantlarni kichik guruhlariga bo'lib, o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish;
- magistrantlarga «1S:Buxgalteriya», «Turbo-Buxgalteriya» va boshqa dasturlar bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish;
- iqtidorli magistrantlar bilan ularni qiziqtiruvchi mavzular bo'yicha qo'shimcha darslar tashkil qilish va h.k.

"Xalqaro audit tizimi" kursini o'qitishni ilg'or pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari bo'lmish o'quv maqsadlari va vazifalari katalogini ishlab chiqish; o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga ko'chirish; o'quv maqsadlariga erishish; qo'yilgan maqsadlarga erishilishini baholash; tayanch iboralariga asoslangan nazorat ishlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

"Xalqaro audit tizimi" fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'qitiladi. Auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida magistrantlar korxonada va xo'jaliklarda amaliyot o'taydilar. Magistrantlarning bilimlari o'qituvchilar hamda belgilangan hay'at a'zolari tomonidan reyting usulida baholanadi.

O'quv jarayonida rejaga muvofiq oldin ma'ruza keyin amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. magistrantlar o'tilgan mavzularni mustaqil o'rganishlari uchun uy vazifalari beriladi va ularning bajarilganligi darajasi reyting yordamida baholanadi. Magistrantlarning olgan bilimlarini aniqlashning og'zaki va yozma usullari ham qo'llaniladi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha soatlar hajmi

Mazkur fanni o'rganish uchun jami 60 shu jumladan: nazariy - 20 amaliy - 20 soat va mustaqil ta'lim uchun 20 soat ajratilgan.

2. FAN DASTURI

Xalqaro auditorlik kompaniyalari va ularning rivojlanish tarixi

Sima, Deloyt va Tush auditorlik kompaniyalarining rivojlanish tarixi.

Moliyaviy hisob va hisobotning xalqaro standartlari. (MHHS). *MHHS ning tamoyillari.* Standartning asosiy tamoyillari.

Moliyaviy hisobotlarni tekshirishdan maqsad va uning hajmi

(Standart-1)

Tekshirishdan maqsad va uning hajmi. Moliyaviy hisobotlarning ishonchligi uchun mijozlarning javobgarligi.

Audit o'tkazishga kelishilganligi haqida xat (Standart-2)

Audit o'tkazishga kelishish xatini tuzish tartibi va uning mazmuni. *Kelishilganlik haqidagi xatpning asosiy tizimlari.*

Auditni o'tkazishning asosiy tamoyillari (Standart-3)

Vijdonlilik, ob'ektivlilik, mustaqillik, konfidentsiallik tamoyillari. Boshqa auditorlarning ish natijalaridan foydalanishga loqaydlilik, hujjatlashtirish, rejalashtirish, auditorlik ma'lumotlarini olish. *Hisob tizimini tekshirish, ichki nazorat, xulosa va xulosalar tuzishni tekshirish.*

Aldash va xato (Standart-11)

Aldash va xato tushunchalarini aniqlash, moliyaviy javobgarlik. *Tahliliy tekshirish.*

Ekspert ishidan foydalanish (Standart-18)

Ekspert o'tkazish tamoyilari. Ekspertni jalb qilishga sabab bo'luvchi tafsilotlar. Ekspert xizmatining qiymati. Auditorlik tanlovlar. *Tanlovning statpistik usullari.* Tanlov tavakkalchiligi. Tanlovni tanlash usullari. Xatolarni bashorat qilish.

Auditorlik xulosasining tuzilgan kunini rasmiylashtirish

Balans imzolanganidan so'ng yuzaga keluvchi xabarlar. Moliyaviy hisobot e'lon qilingandan so'ng aniqlanadigan faktlar (Standart-21).

Auditorlik xulosasi tuzilgan kuni rasmiylashtirish. Balans imzolanganidan so'ng yuzaga keluvchi voqealarga nisbatan auditorning javobgarligi. Rahbariyatning tushuntirish xati. Faoliyat ko'rsatuvchi korxonada auditorning maxsus hisobotlari.

Mavhumlik va auditorlik tavakkalchiligi (Standart-25)

Mavhumlik va auditorlik tavakkalchiligi, ular orasidagi bog'liqlik hamda farq. Noaniq ko'rsatkichlarga buxgalterlik bahosi. Buxgalterlik bahosiga auditorlik bahosi. Buxgalterlik bahosini audit qilish bosqichlari. Istiqboldagi moliyaviy axborotlardan foydalanish.

Tekshirilayotgan davrning birinchi moliyaviy hisobotidagi boshlang'ich qoldiqlariga nisbatan auditorning javobgarligi (Standart-28)

Auditorning boshlang'ich qoldiqlar uchun javobgarligi. Boshlang'ich qoldiqlar buzib ko'rsatilishi ehtimolini isbotlashga yordam beradi. *Amallar, qoldiqlarning to'g'ri ko'chirilganligi va aslini tiklash.* O'z tavakkalchiligini va nazorat tavakkalchiligini baholash hamda ularning mustaqil bajarilgan amallarga ta'siri.

MDH mamlakatlari auditorlik standartlarining o'ziga xos tamoyillari

Rossiya auditorlik standartlarining o'ziga xos xususiyatlari. *Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va boshqa qo'shni mamlakatlarda auditorlik tekshiruvi.*

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARINING MAVZULARI

Audit o'tkazishga kelishish xatini tuzish*.

Auditning rejasi va dasturini tuzish*.

Audit axborotini yig'ish va qayta ishlash*.

Auditni hujjatlarda rasmiylashtirish (ishchi hujjatlar)*.

"Aldash" va "Xato" standartlari bo'yicha tafsilotlarni muhokama qilish*.

Auditorlik tanlovi va tavakkalchiligi* (masala echish).

Ijobiy auditorlik xulosasini tuzish*.

Salbiy auditorlik xulosasini tuzish*.

Shartli auditorlik xulosasini tuzish*.

Rahbariyatga tushuntirish xati tuzish*.

Davlatlararo iqtisodiy munosabatlarning barqaror va ishonchli rivojlanishini ta'minlashda xalqaro audit tizimining o'rni*.

Xalqaro auditning rivojlanish tarixi. Chet ellarda auditning yuzaga kelishi va rivojlanishi*.

Auditning xalqaro standartlari hamda ularning amaliyotda qo'llanilishi*.

Xalqaro audit bo'yicha O'zbekistonda va chet ellarda chop etilgan adabiyotlarga sharh*.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular:

1. Auditda tahliliy tekshirish.
2. Ma'lumotlarni elektron qayta ishlash (MEQ) sharoitida auditorlik tekshiruvini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Auditning kompyuterlashtirilgan usullari.
4. Statistik tanlov usullari.
5. Tanlovda tavakkalchilik.
6. Xatolarni bashorat qilish.
7. Tanlovni tanlash usullari.
8. Rahbariyatga tushuntirish xati.
9. Auditorning maxsus hisobotlari.
10. Faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar.
11. Noaniq ko'rsatkichlarga buxgalterlik bahosi.
12. Buxgalterlik bahosiga audit bahosi.
13. Buxgalterlik bahosini audit etish bosqichlari.
14. Istiqboldagi moliyaviy axborotlardan foydalanish.
15. O'z tavakkalchiligiga va nazorat tavakkalchiligiga baho hamda uning mustaqil amalga ta'siri.

1. TAVSIYA ETILADIGAN KO'RGAZMALI NAMOYISH MATERIALLARI (SLAYDLAR)

Mustaqil ta'lim mavzulari va topshiriqlari o'qituvchilar tomonidan tavsiya qilinadi.

Xalqaro audit tizimi fanini o'rganuvchi tinglovchilar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun kafedra o'qituvchilari rahbarligida o'quv rejasiga muvofiq mustaqil ta'lim oladi va o'rganadi. Mustaqil ta'lim olishdan asosiy maqsad nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun mavzular bo'yicha auditoriyada va uyda referatlar yozadilar, mavzular bo'yicha testlarni echishadi. Shuningdek, boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari fanini o'rganish bilan birga talabalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amaliyot o'taydilar. Magistraturani tugatishda belgilangan amaliyot natijalaridan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar materiallaridan foydalanib, magistrlik dissertatsiyasini yozadilar.

Fanni o'rganishda tinglovchilar amaliy yordam tariqasida "Xalqaro audit tizimi" fani bo'yicha qo'llaniladigan turli xil shakl, chizmalar, slaydlar bilan ta'minlanadi va foydalaniladi.

Tinglovchilar "Xalqaro audit tizimi" fanini o'rganishga doir axborot vositalaridan, ya'ni Internet tizimidan ham keng foydalanadilar. Jumladan, quyidagi sayd va elektron pochtalardan foydalanishi mumkin:

1. <http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board)
2. <http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office)
3. <http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom)
4. <http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee)
5. <http://www.aicpa.org/index.htm> (American Institute of Certified Public Accountants)
6. www.uza.uz (Uzbekistan milliy axborot agentligining turli sohalarga doyr kundalik yangiliklari)
7. www.cer.uz (Iqtisodiy izlanishlar markazi)
8. www.pravo.eastink.uz (Iqtisodiy qonunlar to'plami)
9. www.referat.ru referatlar to'plami va boshqalar.

Shuningdek, respublikadagi chop etilgan gazeta va jurnallardan ham mutaxassislikka tegishli materiallar olinadi.

2. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Magistrlarning o'zlashtirishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2001 yil 26 dekabrda 324-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan

"Reyting tizimida nazorat etish" Nizomiga ko'ra amalga oshirilishi kerak. O'zlashtirishni baholash o'quv semestri davomida quyidagi turlarda o'tkaziladi.

- joriy nazorat (jb);
- oraliq nazorat (ob);
- yakuniy nazorat (yab).

JB va OB ning ballari miqdori mazkur fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatlarning 70% miqdorida belgilanadi.

Fan uchun javobgar kafedra o'z yig'ilishidagi quyidagi baholash mezonlarining mohiyati va murakkabligini e'tiborga olib ballar miqdorini tasdiqlaydi.

- semestr mobaynida magistrning faolligi va darslarga qatnashishi;
- amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorligi;
- fanning asosiy manbalarini yig'ish;
- dolzarb mavzularda referatlar yozish;
- ilmiy-amaliy seminarlarda, konferentsiyalarda chiqish qilish hamda ma'ruza tezislari tayyorlash;
- yangi maxsus adabiyotlarga annotatsiyalar tayyorlash;
- mustaqil o'qish mavzularida nazorat ishi yozish;
- chet el adabiyotlaridan tarjimalar qilish;
- ko'rgazmali qo'llanmalarni tayyorlash;
- fanning bo'limlari bo'yicha magistrning bilimini baholash.

Semestr oxirida umumiy ball va to'plangan ball miqdori reyting kitobchasida qayd qilinadi.

Agarda to'plangan ballar miqdori umumiy ballning 55% idan kam bo'lsa, reyting kitobchasida qayd qilinmaydi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" Qonuni. 30.08.1996 g.
2. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida" Qonuni. 01.09.2001.
3. O'zbekiston Respublikasi 3-sonli audit milliy andozasi "Auditni rejalashtirish" № 837 (10.11.1999).
4. O'zbekiston Respublikasi 4-sonli audit milliy andozasi № 4 "Mijozlar faoliyati bilan tanishish" № 810 (3.09.1999).
5. O'zbekiston Respublikasi 31-sonli audit milliy andozasi "Xo'jalik sub'ektlari faoliyati bilan tanishish" № 1043 (21.06.1999).
6. O'zbekiston Respublikasi 5-sonli audit milliy andozasi "Auditning ish sifati nazorati" № 811 (3.09.1999).
7. O'zbekiston Respublikasi 6-sonli audit milliy andozasi "Auditni hujjatlashtirish" № 812 (3.09.1999).
8. Arens E.A., Lobbek Dj.K. Audit: Per. s angliyskogo 5-go izd. -M.: Finansi i statistika, 1995.
9. Audit: Uchebnik dlya vuzov. / V.I.Podolskiy i dr. -M.: Yuniti-Dana, 2000.
10. Danilevskiy Yu.A. Audit: Uchebnoe posobie. -M.: FBK. Press, 2000.
11. Mamatov Z., Norbekov D., Shakarov K. Audit. -T.: Toshkent Islom Universiteti, 2002.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. 1-son Buxgalteriya hisobi milliy andozasi - Hisob siyosati va moliyaviy hisobot.
2. 2-son O'zbekiston Respublikasi audit milliy andozasi -Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar.
3. 3-son O'zbekiston Respublikasi audit milliy andozasi - Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot.
4. 4-son O'zbekiston Respublikasi audit milliy andozasi - Tovar-moddiy zahiralari.
5. 5-son O'zbekiston Respublikasi audit milliy andozasi - Asosiy vositalar.
6. 6-son O'zbekiston Respublikasi audit milliy andozasi - Lizing hisobi.
7. 7-son O'zbekiston Respublikasi audit milliy andozasi - Nomoddiy aktivlar.
8. 8-son O'zbekiston Respublikasi audit milliy andozasi - Konsolidarlashgan moliyaviy korxonalariga investitsiyalar.
9. 9-son O'zbekiston Respublikasi audit milliy andozasi - Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot.